



**UYUSHGAN YOSHLAR ORGANIZMIDA JISMONIY HOLAT DARAJASINI
ANIQLASH**

Tadjibayeva Dilafruz Raxmonberdiyevna
*Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
gistologiya va biologiya kafedrasi o‘qituvchisi*
dilytadjibaeva@gmail.com.

Annotatsiya. Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining 2-kurs stomatologiya va pediatriya yo‘nalishi talabalari 46 nafar yigit va qizlarni o‘rtasida o‘tkazilgan tadqiqotda oliv o‘quv yurtida o‘qish paytida yurak-qon tomir tizimining jismoniy holati o‘rganildi. Maqolada uyushgan yoshlар organizmi jismoniy holati bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatiga, jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirish va ulardan foydalanishga ta’sir qilishi yoritilgan. Mushaklarning tinch xolatidagi ko‘rsatgichlariga asosan jismoniy xolat darajasini hisoblabash Ye. L. Pirogova tomonidan yaratilgan 1985y formula yordamida hisoblangan, unga ko‘ra puls, o‘rtacha arterial bosim, bo‘y, vazn, yosh ko‘rsatkichlari inobatga olingan. Natijalarda Van-der-Waerden X-testi yordamida nonparametrik komplekslar taxlili amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: Morfofunksional rivojlanish, Jismoniy holat, morfologik, funktsional xususiyat, puls, o‘rtacha arterial bosim, buy, vazn, yosh ko‘rsatkichlari, X-mezonini nonparametrik.

Abstract. This article examines the physical condition of the body of 46 young men and women students of the 2nd year of dentistry and pediatrics at the Fergana Medical Institute of Public Health during their studies at a higher educational institution based on the cardiovascular system. The physical condition of the body in the body of organized youth affects the quality of the products of future specialists, increasing the mental abilities of society. The analysis of the data of the physical condition of the body in a state of muscular rest was carried out using the formula compiled in 1985 by E.A. Pirogova, where pulse, average arterial pressure, height, weight and age indicators were taken into account. Based on the results of the calculations of the UFS formula, a nonparametric complex analysis was carried out using the Van der Waerden X-criterion.

Key words: Morfofunksional rivojlanish, Jismoniy holat, morfologik, funktsional xususiyat, pulse, o‘rtacha arterial bosim, buy, vazn, yosh ko‘rsatkichlari, X-mezonini nonparametrik.

Аннотация. В данной статье изучается физическое состояние организма У №46 юношей и девушек студентов 2 курса направлении стоматологии и педиатрии Ферганского медицинского института общественного здоровья в процессе обучения в высшем учебном учреждении на основе сердечно-сосудистой системы. Физическое состояние организма в организме организованной молодежи влияет на качество продукции будущих специалистов, повышая умственные способности общества. Анализ данных физического состояния организма в состояние мышечного покоя проводилось с помощью формулы составленной 1985г со стороны Е.А. Пироговой где учитывались пульс, среднее артериальное давление, рост, вес и возрастные показатели. На основе результатов расчетов формулы УФС был проведен непараметрический комплексный анализ с использованием Х-критерия Ван-дер-Вардена.

Ключевые слова. Морфофункциональное развитие, физическое состояние, морфологические, функциональные характеристики, пульс, среднее артериальное давление, рост, вес, возрастные показатели, Х-критерий, непараметрический.

Kirish: Salomatlik jismoniy tayyorgarlik, jismoniy rivojlanish va jismoniy mexnatni yuqori darajasini nazarda tutadi. Olimlar salomatlikni rivojlantirish jarayonini, organizmning chidamliyligi bilan bog‘lashadi, chunki bu sifat ichki organlarning ko‘p qirrali moslashuvini va to‘qimalarni kislorod bilan ta’minlanish uchun ma’sul bo‘lgan yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining zaxiralarini kengaytirishni ta’minlaydi. Chidamlilikning rivojlanish darajasi jismoniy salomatlikni baholash uchun ishlataladi, uning ekvivalenti insonning jismoniy holatidir. [1] Morfofunktional rivojlanishning tarkibiy qismlari organizmning jismoniy rivojlanishi va funktional holati bo‘lib, bunda organizmning jismoniy kuch zaxirasini belgilovchi morfologik va funktional xususiyatlarining majmui sifatida tushuniladi. Insonning funktional holati organizmning moslashish qobiliyatining ajralmas ko‘rsatkichi bo‘lib, adaptiv moslashish natijaga erishish uchun uning fiziologik, biokimyoviy, psixologik va xulq-atvorini tartibli o‘zaro ta’sirini aks ettiradi. [2]

Tadqiqotning ob’ekti va metodlari: Tadqiqotda Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining 2-kurs talabalari, 18-24 yoshli 46 nafar yigit va qizlarni tashkil etadi. Asosiy guruhni 22 nafar talabasi – Pediatriya yunalishida, 24 nafar talabasi – Stomatologiya yo‘nalishida taxesil oladi. 2 guruhga bo‘lingan holda tadqiqot natijasida olingan ma’lumotlardan foydalanildi.

Yosh avlod salomatligini asrash va mustahkamlash eng muhim davlat pozitsiyasidir. Jismoniy salomatlik holati bo‘lajak mutaxassislarini tayyorlash sifatiga, jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirish va ulardan foydalanishga juda kuchli ta’sir qiladi. [3] Ilmiy tadqiqotlar doimiy ravishda tadqiqot usullarini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, ular organizning tinch holatda olingan natijalarga asoslanib, dinamik ish paytida tananing reaksiyalarini taxmin qilish imkonini beradi. Mushaklarning tinch holatidagi ko‘rsatkichlari asosida umumiyl va aerob ko‘rsatkichlarini baholash qobiliyatini tasdiqlovchi ma'lumotlar katta qiziqish uyg‘otadi.

Mushaklarning tinch xolatidagi ko‘rsatgichlariga asosan jismoniy xolat darajasini hisoblabash uchun Ye. L. Pirogova tomonidan 1985y formula ishlab chiqilgan, unga ko‘ra puls, o‘rtacha arterial bosim, buy, vazn, yosh ko‘rsatkichlari inobatga olinadi.

$$JHI=700-3*P-2.5*ADo‘rtacha-2.7*Y+0.28*V/350-2.6*Y*0.21*B$$

Kerakli hisob-kitoblarni amalga oshirgandan so‘ng, olingan natija quyidagi shkala bo‘yicha baholanadi. Unga ko‘ra, [1]

Qiymatlar diapazoni;

| <i>JHI(jisminiy holat indeksi)</i> | <i>JHD(jisminiy holat darajasii)</i> |
|------------------------------------|--------------------------------------|
| 0,375 dan kichik | Past |
| 0,376-0,525 | O‘rtachadan past |
| 0,526-0,675 | O‘rtacha |
| 0,676-0,825 | O‘rtachadan yuqori |
| 0,826 va undan ko‘p | Yuqori |

Munozara va eksperimentda olingan natijalar: Statistik mezonlarni hisoblash uchun parametrik testlarni to‘g‘ri qo‘llash taqqoslanayotgan namunalar olinadigan ob’ektlarning normal taqsimlanishini taxmin qilishga asoslanadi. Tadqiqotchi nafaqat miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari bilan shug‘ullanishi kerak, ularning aksariyati tartib raqamlar, darajalar va boshqa an‘anaviy belgilardan xam foydalanishi mumkin. Bunday hollarda noparametrik testlardan foydalanish kerak. Bir qator noparametrik mezonlar ma’lum bo‘lib ular orasida muhim o‘rinni darajalarning mezonlari egallaydi, ularning qo‘llanilishi taqqoslanadigan guruhlar a’zolarining darajalariga asoslanadi. Bunday holda, a’zolarining o‘zlari emas, balki ularning tartib raqamlari yoki darajalari taqqoslanadi. Van-der-Waerden X-testi shunday testlardan biridir va bu mezon darajali testlar guruhiba kiradi, unda mustaqil namunalarni bir-biri bilan solishtirganda nol gipotezani tekshirish uchun ishlatiladi. X-mezonini hisoblash texnikasi quyidagicha, taqqoslangan namunalar xarakteristikaning ortib borayotgan qiymatlariga qarab bitta umumiyligini qatorga joylashtiriladi. Keyin har bir a’zosiga tartib raqami beriladi, bu uning umumiyligini ro‘yxat tizimidagi o‘rnini belgilaydi. Namunalardan birining tartib raqamlari yordamida, odatda kichikroq hajmdagidan foydalangan xolda $R/(N+1)$ nisbati topiladi, bu erda $N+l=n_1+n_2+1$ dir, ya’ni taqqoslangan guruhlarning barcha a’zolarining yig‘indisi bittaga ko‘paytiriladi va R - tadqiqot a’zolarining tartib raqami deb belgilanadi, ularning $\varphi[R/(N+1)]$ “darajasi” maxsus jadvaldan foydalangan holda har bir qiymat uchun topiladi. Natijalarini umumlashtirib (belgilarni hisobga olgan holda) $X_f=\sum\varphi[R/(N+1)]$, qiymati olinadi, bu X_{st} mezonning qabul qilingan ahamiyatlilik darjasini uchun kritik nuqtasi va taqqoslanayotgan namunalar a’zolarining umumiyligini soni, ya’ni $N=n_1+n_2$ bilan solishtiriladi. X-mezon testining 5% va 1% ahamiyatlilik darajalari uchun kritik nuqtalari va ikkita namunadagi $N=n_1+n_2$ a’zolarining umumiyligini soni (n_1-n_2 farqini hisobga olgan holda) Jadvaldan foydalangan

xolatda aniqlanadi. Nol gipoteza taqqoslanayotgan namunalar bir xil taqsimot funksiyalariga ega bo‘lgan obyektlardan olingan degan taxminga asoslanadi. Agar $X_f - X_{st}$ ekanligi aniqlansa, nol gipoteza qabul qilingan ahamiyat darajasida rad etilishi kerak. [4]

Stomatologiya yo‘nalishi talabalarning yurak-qon tomir tizimining ko‘rsatkichlari va JX qiymatlari

Jadval 1.

| Nº | Yosh | Vazn | Puls | Sistolik bosim (SB) | Diastolik bosim (DB) | Bo‘y | JH |
|----|------|------|------|------------------------|----------------------------|------|-------|
| 1 | 18 | 60 | 72 | 110 | 70 | 176 | 0.717 |
| 2 | 18 | 58 | 76 | 110 | 70 | 165 | 0.662 |
| 3 | 18 | 78 | 70 | 110 | 70 | 182 | 0.746 |
| 4 | 18 | 70 | 80 | 120 | 80 | 175 | 0.581 |
| 5 | 18 | 58 | 85 | 120 | 90 | 180 | 0.475 |
| 6 | 19 | 72 | 75 | 110 | 80 | 189 | 0.648 |
| 7 | 19 | 69 | 75 | 120 | 80 | 170 | 0.623 |
| 8 | 19 | 66 | 72 | 110 | 70 | 180 | 0.718 |
| 9 | 19 | 60 | 78 | 120 | 80 | 176 | 0.587 |
| 10 | 19 | 50 | 80 | 120 | 80 | 155 | 0.568 |
| 11 | 19 | 56 | 76 | 110 | 70 | 168 | 0.679 |
| 12 | 19 | 82 | 75 | 110 | 70 | 193 | 0.698 |
| 13 | 19 | 54 | 76 | 110 | 80 | 147 | 0.636 |
| 14 | 19 | 52 | 88 | 110 | 90 | 176 | 0.468 |
| 15 | 19 | 56 | 83 | 100 | 80 | 165 | 0.592 |
| 16 | 19 | 79 | 83 | 110 | 80 | 170 | 0.585 |
| 17 | 19 | 55 | 85 | 110 | 70 | 160 | 0.600 |
| 18 | 20 | 66 | 75 | 120 | 80 | 181 | 0.613 |
| 19 | 20 | 62 | 74 | 120 | 70 | 175 | 0.673 |
| 20 | 20 | 62 | 85 | 100 | 80 | 176 | 0.572 |
| 21 | 21 | 64 | 88 | 120 | 70 | 174 | 0.544 |
| 22 | 21 | 76 | 75 | 120 | 70 | 180 | 0.671 |
| 23 | 22 | 71 | 85 | 120 | 90 | 172 | 0.472 |
| 24 | 22 | 64 | 89 | 110 | 70 | 178 | 0.555 |

Pediatriya yo‘nalishi talabalarning yurak-qon tomir tizimining ko‘rsatkichlari va JX qiymatlari

Jadval 2

| Nº | Yosh | Vazn | Puls | Sistolik bosim (SB) | Diastolik bosim (DB) | Bo‘y | JH |
|----|------|------|------|------------------------|-------------------------|------|-------|
| 1 | 18 | 50 | 70 | 120 | 80 | 169 | 0,655 |
| 2 | 18 | 55 | 75 | 110 | 80 | 168 | 0,640 |
| 3 | 18 | 48 | 75 | 110 | 80 | 167 | 0,635 |
| 4 | 18 | 45 | 75 | 110 | 80 | 160 | 0,635 |
| 5 | 18 | 72 | 85 | 120 | 70 | 180 | 0,586 |
| 6 | 18 | 61 | 85 | 110 | 70 | 183 | 0,601 |
| 7 | 19 | 62 | 80 | 120 | 70 | 182 | 0,618 |
| 8 | 19 | 68 | 85 | 110 | 70 | 181 | 0,603 |
| 9 | 19 | 50 | 73 | 100 | 75 | 168 | 0,700 |
| 10 | 19 | 54 | 85 | 100 | 70 | 169 | 0,621 |
| 11 | 19 | 68 | 76 | 110 | 85 | 170 | 0,614 |
| 12 | 19 | 65 | 85 | 110 | 75 | 174 | 0,579 |
| 13 | 19 | 46 | 75 | 110 | 85 | 165 | 0,606 |
| 14 | 19 | 51 | 80 | 110 | 75 | 161 | 0,617 |
| 15 | 19 | 70 | 75 | 110 | 75 | 169 | 0,674 |
| 16 | 19 | 60 | 85 | 110 | 85 | 171 | 0,526 |
| 17 | 19 | 62 | 85 | 120 | 80 | 161 | 0,531 |
| 18 | 19 | 63 | 85 | 90 | 60 | 158 | 0,708 |
| 19 | 19 | 65 | 75 | 120 | 85 | 181 | 0,591 |
| 20 | 19 | 62 | 80 | 120 | 75 | 183 | 0,593 |
| 21 | 20 | 75 | 70 | 120 | 85 | 177 | 0,631 |
| 22 | 24 | 72 | 75 | 120 | 70 | 175 | 0,659 |

Stomatologiya va pediatriya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarini yurak-qon tomir tizimi bo‘yicha olingan natijalariga ko‘ra, teng bo‘lmagan namunalar uchun JH tahlil qilish E.A.Pirogovning formulasidan foydalangan holda natijalar qiymati topildi. Van-der-Waerden X-testi yordamida nolparametrik komplekslar taxlili amalga oshirildi. Unga ko‘ra $n_1 \neq n_2$;

stomatologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar: $n=24$;

pediatriya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar: $n=22$;

$X_f=3,7$; $X_{st}=6.21$; ga teng buldi.

X – chegaraviy nukta Van-der-Vardena $n_1 - n_2 = 2$ yoki 3 bulganda $X_f=3,7 < X_{st}=6.21$ ishonchli.

Uyushgan yoshlari organizmida E. A. Pirogova formulasidan foydalangan holda jismoniy holat darajasi to‘g ‘risidagi analizi Van-der-Varden X-mezonlari yordamida tahlili.

| Nº | Pediatriya | Stomatologiya | | | | R/N+1 | φ (R/N+1) |
|----|------------|---------------|--|-------|---|-------|----------------------|
| 1 | 0,526 | 0.468 | | 0,468 | 1 | | |

| | | | | | | | |
|----|-------|-------|-------|-------|----|---------------|-------|
| 2 | 0,531 | 0.472 | | 0,472 | 2 | | |
| 3 | 0,579 | 0.475 | | 0,475 | 3 | | |
| 4 | 0,586 | 0.544 | 0,526 | | 4 | $4/47=0,085$ | -1,37 |
| 5 | 0,591 | 0.555 | 0,531 | | 5 | $5/47=0,106$ | -1,25 |
| 6 | 0,593 | 0.568 | | 0,544 | 6 | | |
| 7 | 0,601 | 0.572 | | 0,555 | 7 | | |
| 8 | 0,603 | 0.581 | | 0,568 | 8 | | |
| 9 | 0,606 | 0.585 | | 0,572 | 9 | | |
| 10 | 0,614 | 0.587 | 0,579 | | 10 | $10/47=0,212$ | -0,80 |
| 11 | 0,617 | 0.592 | | 0,581 | 11 | | |
| 12 | 0,618 | 0.600 | | 0,585 | 12 | | |
| 13 | 0,621 | 0.613 | 0,586 | | 13 | $13/47=0,276$ | -0,60 |
| 14 | 0,631 | 0.623 | | 0,587 | 14 | | |
| 15 | 0,635 | 0.636 | 0,591 | | 15 | $15/47=0,319$ | -0,47 |
| 16 | 0,635 | 0.648 | | 0,592 | 16 | | |
| 17 | 0,64 | 0.662 | 0,593 | | 17 | $17/47=0,361$ | -0,36 |
| 18 | 0,655 | 0.671 | | 0,600 | 18 | | |
| 19 | 0,659 | 0.673 | 0,601 | | 19 | $19/47=0,404$ | -0,24 |
| 20 | 0,674 | 0.679 | 0,603 | | 20 | $20/47=0,425$ | -0,19 |
| 21 | 0,7 | 0.698 | 0,606 | | 21 | $21/47=0,446$ | -0,14 |
| 22 | 0,708 | 0,717 | | 0,613 | 22 | | |
| 23 | | 0.718 | 0,614 | | 23 | $23/47=0,489$ | -0,03 |
| 24 | | 0.746 | 0,617 | | 24 | $24/47=0,510$ | +0,03 |
| 25 | | | 0,618 | | 25 | $25/47=0,531$ | +0,08 |
| 26 | | | 0,621 | | 26 | $26/47=0,553$ | +0,13 |
| 27 | | | | 0,623 | 27 | | |
| 28 | | | 0,631 | | 28 | $28/47=0,595$ | +0,24 |

| | | | | | | | |
|--|--|--|-------------|-------------|----|---------------|-------------|
| 29 | | | 0,635 | | 29 | $29/47=0,617$ | +0,30 |
| 30 | | | 0,635 | | 30 | $30/47=0,638$ | +0,35 |
| 31 | | | | 0,636 | 31 | | |
| 32 | | | 0,64 | | 32 | $32/47=0,680$ | +0,47 |
| 33 | | | | 0,648 | 33 | | |
| 34 | | | 0,655 | | 34 | $34/47=0,723$ | +0,59 |
| 35 | | | 0,659 | | 35 | $35/47=0,744$ | +0,66 |
| 36 | | | | 0,662 | 36 | | |
| 37 | | | | 0,671 | 37 | | |
| 38 | | | | 0,673 | 38 | | |
| 39 | | | 0,674 | | 39 | $39/47=0,829$ | +0,95 |
| 40 | | | | 0,679 | 40 | | |
| 41 | | | | 0,698 | 41 | | |
| 42 | | | 0,7 | | 42 | $42/47=0,893$ | +1,24 |
| 43 | | | 0,708 | | 43 | $43/47=0,914$ | +1,37 |
| 44 | | | | 0,717 | 44 | | |
| 45 | | | | 0,718 | 45 | | |
| 46 | | | | 0.746 | 46 | | |
| | | | n=22 | n=24 | - | | +3,7 |
| $X_f = 3,7 < X_{st} = 6.21$ | | | | | | | |

Xulosa: Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, stomatologiya va pediatriya yo‘nalishlari 2-kurs № 46- talabalaridan olingan tadqiqot natijalari va obyektlar jadvallar quyidagi ko‘rsatkichlarni ko‘rsatdilar. Jismoniy holat jismoniy faoliyat darajasini, hayotni ta’minlovchi organlar va tizimlarning funktional zaxiralarini va birinchi navbatda, yurak-qon tomir tizimini, jismoniy rivojlanish darajasini va jismoniy tayyorgarligini aks ettirdi. Yurak-qon tomir tizimi ko‘rsatkichlarini o‘lchash bo‘yicha jismoniy holat darajasining natijalari stomatologiya va pediatriya talabalari natijalari bilan taqqoslaganda $X_f = 3,7 < X_{st} = 6.21$ tengdir.

Talabalarning sog‘lig‘i sharoitlariga ko‘ra sezilarli darajada farq qilmayd, chunki o‘quv jarayonida va kunlik hayotda bir xil sharoitlar mavjuddir. Stomatologiya va pediatriya yo‘nalishidagi talabalar jismoniy holati bo‘yicha bir xil yuqori natijalarni ko‘rsatdi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Е.А. Пирогова., Совершенствование физического состояния человека. Киев «Здоровья» 1989 г. ISBN 5-311-00283-2/
2. Блинков Сергей Николаевич, Башмак Александр Федорович, Мезенцева Вера Анатольевна, Бородачева Светлана Евгеньевна Исследование морфофункционального развития и физического здоровья студентов 18-22 лет // Ученые записки университета Лесгафта. 2018. №7 (161).
3. Блинков Сергей Николаевич, Левушкин Сергей Петрович, Косихин Виктор Петрович Физическое состояние и соматическое здоровье студенток 19-20 лет // Ученые записки университета Лесгафта. 2017. №10 (152).
4. Г. Ф. Лакин., Биометрия: Учебное пособие для биол.спец.вузов-4-е изд., перераб. И доп.- Москва «Высшая школа»1990352 с.: ил.ISBN5-06-000471-6
5. Данченко.А.М., М.А. Данченко., Алгоритмы биометрических расчетов: Учебное пособие- Томск. Томский государственный университет,2009-128с.